BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

JO‘RAQULOV JAHONGIR JO‘RAQUL O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA *MONILINIA* HONEY TURKUMI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 579.68:632.9 (575.5)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Jo‘raqulov Jahongir Jo‘raqul o’g’li
O‘zbekistonda *Monilinia* Honey turkumi……..……..……..3

Журакулов Жахонгир Журакул угли
Род *Monilinia* Honey в Узбекистане …..... 21

Juraqulov Jahongir Jurakul ogli
The Genus *Monilinia* Honey inUzbekistan..... 37

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 40

BOTANIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M RAQAMLI ILMIY KENGASH

BOTANIKA INSTITUTI

JO‘RAQULOV JAHONGIR JO‘RAQUL O‘G‘LI

O‘ZBEKISTONDA *MONILINIA* HONEY TURKUMI

03.00.05 – Botanika

BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida _____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Botanika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.botany.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot–ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Iminova Malika Mashrabovna**
biologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar: _____

_____

Yetakchi tashkilot: _____

Dissertatsiya himoyasi Botanika instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.B.23.01.M raqamli Ilmiy kengashning 202_-yil “__” _____ kuni soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy. Botanika instituti majlislar zali. Tel.: (+99871) 262-37-95, faks (+99871) 262-79-38, E-mail: botany@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Botanika instituti Axborot–resurs markazida tanishish mumkin (57-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do‘rmon yo‘li ko‘chasi, 32-uy, Tel.: (+99871) 262-37-95.

Dissertatsiya avtoreferati 20__-yil “___” kuni tarqatildi.
(20__-yil “__” _____ -raqamli reyestr bayonnomasi).

K.Sh. Tojibayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

A.V. Maxmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., katta ilmiy xodim

H.F. Shomurodov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, tabiiy-iqlim sharoitlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Mamlakat hududi cho‘l, adir, tog‘ oldi va tog‘ mintaqalarini qamrab olgan bo‘lib, vegetatsiya davrining davomiyligi, haroratning keskin tebranishi hamda yog‘ingarchilikning hududlar bo‘yicha notekis taqsimlanishi qishloq xo‘jaligi ekinlari, xususan, mevali daraxtlarning tarqalishi va fitopatogen kasalliklarga moyilligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillar mevali daraxtlarda zamburug‘li kasalliklarning rivojlanishi uchun qulay ekologik sharoit yaratadi.

O‘zbekiston bog‘dorchilik tarmog‘i qishloq xo‘jaligining yetakchi yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, olma, nok, o‘rik, shaftoli, gilos, olcha va boshqa urug‘mevali hamda danakmevali daraxtlar keng maydonlarda yetishtiriladi. 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, respublikada mevali bog‘larning umumiy maydoni 216,4 ming gektarni tashkil etib, shundan qariyb 50 foizi urug‘mevali bog‘larga to‘g‘ri keladi. Umuman olganda, barcha xo‘jalik toifalarida 342 ming gektar maydonda meva va rezavor ekinlar parvarish qilinmoqda, shundan 146 ming gektari olma bog‘laridir. Bu esa jami bog‘ maydonlarining 42,6 foizini tashkil etadi.

Mazkur bog‘larda uchraydigan eng xavfli kasalliklardan biri – *Monilinia* Honey turkumiga mansub zamburug‘lar keltirib chiqaradigan monilioz kasalligidir. Ushbu kasallik natijasida hosilning o‘rtacha 30 foizgacha nobud bo‘lishi mumkinligi hisobga olinsa, uning iqtisodiy zarari nihoyatda yuqori ekanligi ayon bo‘ladi. *Monilinia* Honey turkumiga mansub fitopatogen zamburug‘lar urug‘mevali va danakmevali daraxtlarda gul chirishi, yosh novdalar va kurtaklarning qurishi, mevalarning tez chirishi kabi belgilar bilan namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston hududlariga xos bo‘lgan bahorgi yuqori namlik, yozgi issiq harorat va qurg‘oqchilik davrlarining almashinuvi *Monilinia* turlarining rivojlanishi va keng tarqalishi uchun qulay sharoit yaratadi. Natijada kasallik nafaqat madaniy bog‘larda, balki yovvoyi mevali o‘simliklarda ham uchrab, fitosanitar barqarorlikka jiddiy xavf tug‘diradi.

Jahon miqyosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mikroorganizm-lar, xususan fitopatogen zamburug‘lar ta’sirida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilining 30 foizgacha qismi yo‘qotiladi. Ma’lumki, 15 mingdan ortiq mikroorganizmlar o‘simliklar uchun patogen hisoblanadi. Ushbu holat O‘zbekiston bog‘dorchiligida ham hosildorlik va mahsulot sifati pasayishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, *Monilinia* turkumiga mansub zamburug‘larning biologik xususiyatlari, virulentlik darajasi va ekologik moslashuvchanligi ularning zararli ta’sirini yanada kuchaytirmoqda.

So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, antropogen omillarning ortishi, agroeko-tizimlarda ekologik muvozanatning buzilishi *Monilinia* zamburug‘larining yangi morfobiologik shakllari paydo bo‘lishiga, patogenlik xususiyatlarining kuchayishiga va kasallikning kengroq tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Ilmiy manbalarda ushbu zamburug‘larning nafaqat bog‘ ekinlarida, balki tabiiy o‘rmon biotsenozlarida ham uchrashi qayd etilgan bo‘lib, bu ularning ekologik

moslashuvchanligini tasdiqlaydi. Moniliozga qarshi kurashishda mevalarning tabiiy himoya mexanizmlarini, xususan fenolik birikmalarning roli alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘rik va boshqa mevalar po‘stida to‘planuvchi fenolik moddalarning miqdori *Monilinia* zamburug‘larining rivojlanishini cheklovchi muhim omil hisoblanadi. Mevaning ontogenez bosqichlariga qarab fenolik moddalarning o‘zgarishi kasallikning rivojlanish dinamikasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonlarni O‘zbekiston sharoitida chuqur o‘rganish ilmiy ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash va fitosanitar barqarorlikni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4246-sonli qarori[1] hamda 2020-yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 13.10.2020 yildagi “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4861-sonli qarorlari[2] bog‘dorchilikni rivojlantirish, kasalliklarga qarshi kurashni kuchaytirish va eksportbop mahsulot yetishtirishni ta’minlashni ko‘zda tutadi. Ushbu me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda Monilinia Honey turkumiga mansub zamburug‘larning biologiyasi, tarqalishi va patogenlik xususiyatlarini o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, *Monilinia* Honey turkumi vakillarining O‘zbekiston sharoitidagi geografik tarqalishi, bioekologiyasi, xo‘jayin o‘simliklar bilan o‘zaro munosabati, iqtisodiy zarari hamda ularga qarshi samarali integratsiyalashgan kurash choralarini ishlab chiqishga qaratilgan mazkur dissertatsiya tadqiqoti dolzarb, ilmiy jihatdan asoslangan va yuqori amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi. Yuqoridagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V.“Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Monilinia* Honey turkumi vakillari qo‘zg‘atadigan monilioz kasalligi jahon miqyosida keng tarqalgan bo‘lib, AQSH, Avstraliya, Rossiya, Xitoy va boshqa Osiyo mamlakatlarida ilmiy jihatdan o‘rganilgan. Turli hududlarda monilioz qo‘zg‘atuvchilarining tur tarkibi, bioekologik xususiyatlari, tarqalishi, rivojlanishi, zararlilik darajasi va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo‘yicha E.E. Honey (1928, 1936), Persoon (1796), J. M Ogawa (1991), G. Agrios (2005), C. Martini (2012), A. L.

[1] “O‘zbekiston Respublikasida bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
(2019-yil 20-mart, PQ–4246-son).

[2] “O‘simliklar karantini bo‘yicha davlat xizmati faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori
(2020-yil 13-oktabr, PQ–4861-son).

Lantos (2016), J.Hrustić et al. (2013), Van Leeuwen, et al. (2002), Y. Luo., T. J. Michailides, (2001), J. M. Ogawa, & H. English (1991), R. Antanyniene. (2024). va boshqa olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

MDH mamlakatlarida, jumladan Rossiya, Ukraina, va Qozog‘iston hududlarida *Monilinia* turkumi vakillarining sistematikasi, tarqalishi va xo‘jayin o‘simliklari bilan bog‘liqligi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, И.В Королева (2016), Т.В. Воронкова (2010), В.А Благовешенский va boshq. (2002), V.P. Heluta (1998), O. Matsiuk va boshq. (2012), S.R. Shvartsman va boshqalar (1973) tomonidan chop etilgan adabiyotlarda *Monilinia* turlarining taksonomik o‘rni va hududiy tarqalishi haqida muhim ilmiy ma’lumotlar keltirilgan. O‘zbekiston sharoitida *Monilinia* turlari va monilioz kasalligini o‘rganish bo‘yicha bir qator ma’lumot Н.Г. Запрометов (1926), П.Н. Головин (1949), Б.А. Ҳасанов va boshqalar (2004) tomonidan nahsr qilingan ilmiy manbalarda keltirilgan. Shuningdek А. Марупов va бошқалар (2015), Ф.М. Бойжигитов va З. Умаров (2015), Н.М. Мамедов (2017)tomonlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib bu manbalarda asosiy e`tibor qishloq xo‘jaligi ekinlaridagi monilioz kasalligi qarshi kurashga qaratilgan. Ushbu ishlarda kasallikning tarqalishi, zararlilik darajasi va unga qarshi kurash choralari yoritilgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda *Monilinia* turkumining taksonomiyasi, ekologiyasi hamda madaniy va tabiiy xo‘jayin o‘simliklar bilan bog‘liq infektsiya zanjiri yetarli darajada tizimli o‘rganilmagan.

Shu sababli, O‘zbekistonda *Monilinia* turkumining taksonomiyasi, ekologiyasi va uning madaniy hamda tabiiy xo‘jayin o‘simliklar bilan bog‘liq infektsiya zanjiri yetarlicha tizimli o‘rganilmaganligi dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda. Shu bois, O‘zbekistonda *Monilinia* turkumini o‘rganish, uning biologik xususiyatlari, ekologik tendensiyalari qishloq xo‘jaligi ekinlari va tabiiy tabiiy o‘simliklardagi monilioz kasalligi bilan bog‘liq infektsiya zanjirini aniqlash hozirgi kunda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘z RFA Botanika instituti Mikologiya va algologiya labaratoriyasining 2021-2024-yillarga mo‘ljallangan “Iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simliklar, eksportbop meva, sabzavot va poliz ekinlarida kasallik qo‘zg‘atuvchi patogen zamburug‘lar: xilma-xilligi, monitoringi hamda elektron ma’lumotlar bazasini yaratish (Buxoro va Namangan viloyatlari misolida)” Davlat Ilmiy texnik dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. *Monilinia* turkumini taksonomik tarkibini aniqlash, madaniy va tabiiy o‘simliklarda tarqalishi va bioekologik xususiyatlarini kompleks tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

O‘zbekiston hududida *Monilinia* turkumi tur tarkibini aniqlash;

Aniqlangan turlarni morfologik va diagnostik belgilar asosida *Junctoria* va *Disjunctoria* seksiyalari bo‘yicha tasniflash;

Madaniy o‘simliklarda (urug‘mevali va danakmevali daraxtlarda) *Monilinia* turlarining tarqalishi, infeksiya manbalari va zararlanish darajasini baholash;

Tabiiy o‘simliklarda *Monilinia* turlarning tarqalish xususiyatlari va ularni infeksiya manbai sifatida baholash;

Tabiiy hududlarda do‘lana moniliozining tarqalishi va mavsumiy rivojlanishini bioiqlimiy modellar asosida bashoratlash hamda ekologik tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekt. O‘zbekiston hududida tarqalgam *Monilinia* Honey turkumi turlari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti. O‘zbekistonning turli hududlaridan yig‘ilgan mikologik gerbariy namunalari, *Monilinia* turlarining taksonomiyasi, tarqalishi mavsumiy rivojlanishi va o’simliklarning zararlanish darajalari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda marshrutli dala tadqiqotlari, mikroskopiya, fitopatologik, mikologik, o‘simliklarning kasallanish darajalarini baholash va bioiqlimiy modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

morfologik va diagnostik belgilari asosida O‘zbekiston hududida *Monilinia* turkumining taksonomik tarkibi *Junctoria* va *Disjunctoria* seksiyalari ilmiy jihatdan tahlil qilindi;

ilk bor, zamonaviy tasnif tamoyillari (one fungus – one name) asosida *Monilia crataegi* bilan qayd etilgan zamburug‘ining teleomorf bosqichi *Monilinia johnsonii* turi aniqlangan;

tabiiy o‘simliklarda *Monilinia* turkumi turlarining roli va ularni infektsiya manbai sifatida baholash orqali, kasallanishning infektsiya zanjiri va ekologik interaktsiyasi ochib berilgan;

bioiqlimiy modellashtirish orqali, monilioz kasalligining *Crataegus turkestanica* turida tarqalishi baholangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston hududida qayd etilgan Monilinia turkumi turlarining 172 ta mikologik gerbariy namunalari Xalqaro “Global Biodiversity Information Facility” (GBIF) ma’lumotlar bazasiga kiritildi;

Tabiiy hududlarda uchraydigan do‘lana moniliozi kasalligining tarqalish areallari ko`rsatuvchi hamda MaxEnt modeli asosida uning potensial tarqalish hududlarini aks ettiruvchi prognoz xaritalari tuzildi;

Olingan natijalar qishloq va o‘rmon xo‘jaligida monilioz kasalligini monitoring qilish, fitosanitar nazoratni takomillashtirish hamda kasallikka qarshi samarali kurash choralarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos sifatida foydalanish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi laboratoriya va dala tadqiqotlarida zamonaviy uslublardan foydalanilganligi, olingan natijalarni respublika, xalqaro anjumanlarda muhokama qilinganligi va yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, tadqiqotning amaliy natijalari vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda mikologik gerbariy namunalari Botanika instituti Mikologik gerbariy (TASM) fondida saqlanayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ilmiy ahamiyati O‘zbekiston hududida *Monilinia* turkumining taksonomik tarkibi ilk bor tizimli ravishda aniqlangan, ularning morfologik, mikroskopik va

diagnostik belgilar asosida *Disjunctoria* va *Junctoria* seksiyalari bo‘yicha tasniflanganligi, madaniy va tabiiy o‘simliklarda monilioz kasalligining tarqalishi, infektsiya manbalari va zararlanish darajasi baholanganligi bilan izohlanadi.

Natijalarning amaliy ahamiyati qishloq va o‘rmon xo‘jaligida monilioz kasalliklarini monitoring qilish va fitosanitar tadbirlarni samarali rejalashtirishda ilmiy-amaliy manba sifatida xizmat qilishi tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarning joriy qilinishi: O‘zbekistonning 9 ta viloyatidagi turli hududlarda olib borilgan mikologik tadqiqotlar natijasida Monilinia Honey turkumining beshta turi aniqlandi. Tadqiqotlar davomida yig‘ilgan 172 ta mikologik gerbariy namunasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti huzuridagi Mikologik gerbariy (TASM) fondiga topshirildi (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 6-fevraldagi 4/1255-339-sonli ma’lumotnomasi).Ushbu materiallar mamlakatimiz hududida yuksak o‘simliklardan yig‘ilgan mikromitsetlarga oid fondni boyitdi hamda O‘zbekistonning mevali bog‘lari hududlarida tarqalgan manilioz kasalligining tarqalish xususiyatlarini o‘rganish va tizimlashtirishda ilmiy manba sifatida xizmat qildi.

Shuningdek, O‘zbekiston hududidan yig‘ilgan *Monilinia* Honey turkumiga mansub 172 ta mikologik gerbariy namunalarini tahlil qilish natijasida olingan ma’lumotlar “Bioxilma-xillik bo‘yicha ma’lumotlar global tizimi” (GBIF) xalqaro elektron bazasiga kiritildi (GBIF, www.gbif.org, 2025-yil 24-oktabr, 060-sonli guvohnoma). Natijada, O‘zbekistonning turli tabiiy-iqlim sharoitlaridagi mevali bog‘lari va xo‘jalik hududlarida yuksak o‘simliklarda uchraydigan mikromitsetlarning tarqalishini xalqaro darajada hujjatlashtirish, ularning arealini baholash hamda monilioz kasalligining fitosanitar holatini monitoring qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkoniyati yaratildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 1 ta xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ishlar nashr etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan. **Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 120 betdan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib

berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“*Monilinia* turkumi bo‘yicha mikologik tadqiqotlarning hozirgi holati”** deb nomlangan. Bobning birinchi bo‘limida xorijiy va MDH mamlakatlarida monilial chirish (monilioz) kasalligining o‘rganilish tarixi, *Monilinia* turkumi turlarining biologiyasi, tarqalishi, diagnostikasi va epifitologiyasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilingan. Jumladan xorijdagi mikologik tadqiqotlar E.E. Honey (1928, 1936), Persoon (1796), J. M Ogawa (1991), G. Agrios (2005), C. Martini (2012), A. L. Lantos (2016), J.Hrustić et al. (2013), Van Leeuwen, et al. (2002), Y. Luo., T. J. Michailides, (2001), J. M. Ogawa, & H. English (1991), R. Antanyniene. (2024) asosida yoritilgan. Birinchi bobning ikkinchi paragrafida O‘zbekistonda *Monilinia* Honey turkumiga mansub zamburug‘lar bo‘yicha olib borilgan mikologik tadqiqotlarning shakllanish va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Dastlabki ma’lumotlar Zaprometov (1926, 1928) ishlarida keltirilib, *Monilinia fructigena* va *M. laxa* turlarining o‘rik va olma mevalarida uchrashi qayd etilgan. Keyingi yillarda Golovin (1949) va Kleyner (1958) tadqiqotlarida ushbu turlarning patogenligi, morfologik xususiyatlari hamda iqlim sharoitiga moslashuvi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Karimov (1962) va Dementeva (1979) ishlarida monilioz kasalligining tarqalish darajasi va baholash metodikasi ishlab chiqilgan bo‘lsa, Sheraliyev (1982) tomonidan kasallanish intensivligini aniqlash formulalari taklif etilgan. So‘nggi yillarda Xasanov (2018–2022) tadqiqotlari O‘zbekiston bog‘dorchilik zonalarida *M. laxa* ning asosiy patogen ekanini ko‘rsatib, ayrim hududlarda *M. fructigena* va *M. fructicola* turlarining ham uchrashini aytib o‘tgan. Birinchi bobning uchinchi paragrafida dissertatsiyada qo‘llanilgan tadqiqot obyektlari va metodlari yoritilgan. Tadqiqotlar O‘zbekistonning turli tabiiy-iqlim mintaqalarida joylashgan mevali bog‘lar va tabiiy hududlarda uchraydigan mevali daraxtlarda qayd etilgan *Monilinia* turkumiga mansub patogenlarni o‘rganishga qaratilgan. Patogen zamburug‘larni ajratib olish va o‘stirishda klassik mikologik usullar, jumladan, sirt sterilizatsiyasi va nam kamera usullari Bilay (1977) va Kleyn (1974) tavsiyalariga asoslangan holda qo‘llanilgan. Kasallikning tarqalishi va rivojlanish darajasini baholashda Dementeva (1977, 1985) tomonidan taklif etilgan metodikalar va baholash shkalalaridan foydalanilgan, kasallanish intensivligini aniqlashda esa Sheraliyev (1982) yondashuvi asos qilib olingan. Patogenlikni isbotlash maqsadida tadqiqotlarda Kox postulatlari asosida patogenlik testlari o‘tkazilgan. Zamburug‘larning morfologik va mikroskopik belgilarini o‘rganishda Roskin (1967), vaqtinchalik preparatlar tayyorlashda Maysel va Gutkina (1953) usullari qo‘llanilgan. Zamburug‘ turlarining nomenklaturasi va identifikatsiyasi MycoBank va IndexFungorum xalqaro bazalari asosida aniqlashtirilgan. To‘rtinchi paragrafda O‘zbekiston hududining tabiiy-geografik sharoiti va keskin kontinental iqlimi Monilinia turkumiga mansub patogenlarning tarqalishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omil sifatida yoritilgan. Tog‘oldi, voha va tabiiy o‘rmon hududlarida yovvoyi mevali daraxtlarning mavjudligi patogenlarning tabiiy rezervuari sifatidagi ahamiyatini belgilashi ta’kidlangan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda tarqalgan *Monilinia* Honey turkumi turlarining taksonomik tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida respublika hududida *Monilinia* turkumidan 5 tur (*M. laxa*, *M. fructicola*, *M. fructigena, M. linhartiana, M. johnsonii*) aniqlanib ularining sistematik o‘rni va diagnostik belgilari batafsil tahlil qilingan. Bobda tadqiqotlar davomida aniqlangan turlar *Junctoria* va *Disjunctoria* seksiyalariga ajratilib, har bir turning morfologik va mikroskopik xususiyatlari solishtirma tahlil asosida yoritilgan (1-jadval). Konidiyalar tuzilishi, sporulyatsiya xususiyatlari, koloniya morfologiyasi hamda xo‘jayin o‘simliklarga moslashuv darajasi asosiy taksonomik mezonlar sifatida baholangan.

1-jadval

Honey (1928, 1936) tasnifiga ko‘ra *Junctoria* seksiyasining asosiy tarixiy-diagnostik belgilari

Asosiy belgi	Ta’rif	Ilmiy ahamiyati
Konidiyalarning uzluksiz zanjiri	Konidiyalar disjunktorsiz bevosita bir-biriga ulanib, uzilmagan zanjir hosil qiladi	*Disjunctoria* sektsiyasidan qat’iy farqlovchi asosiy belgidir
Disjunktorlarning yo‘qligi	Konidiyalar orasida modifikatsiyalangan hujayralar (disjunktorlar) mavjud emas	Sektsiyaning morfologik barqarorligini ta’minlaydi
Ellipsoid konidiyalar	Bir hujayrali, silliq, rangsiz ellipsoid konidiyalar	Monilinia turlarini boshqa Sclerotiniaceae vakillaridan ajratishda ishlatiladi
Apotetsiya hosil bo‘lishi	Mumiyolangan mevalarda yetiladigan apotetsiyalar tabiatda uchramasligi	Teleomorf bosqichning mavjudning mavjud emasligi
Tarixiy maqomi	Honey tomonidan turkumning asosiy sektsiyasi sifatida belgilangan	Keyingi barcha tadqiqotlar uchun referens bo‘lim sifatida ishlatilgan

Ikkinchi bobining birinchi bo‘limida *Monilinia* turkumining *Junctoria* seksiyasiga mansub turlar – *Monilinia laxa*, *M. fructigena*, *M. fructicola* ning taksonomik xususiyatlari yoritilgan. Ikkinchi bob natijalari O‘zbekiston hududida *Monilinia* turkumining tur tarkibini aniqlash, ularning o‘zaro farqlanishini asoslash va keyingi boblarda olib borilgan ekologik hamda epifitologik tahlillar uchun ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu turlarning morfologik va mikroskopik belgilari, sporulyatsiya xususiyatlari, xo‘jayin o‘simliklarga moslashuvi hamda O‘zbekiston hududida tarqalish darajasi tahlil qilingan. Olingan natijalar mazkur seksiyaga mansub turlar respublika bog‘larida monilioz kasalligining asosiy qo‘zg‘atuvchilari ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Bu bo‘limda o‘tkazilgan tahlillar *Monilinia laxa* ning O‘zbekiston sharoitida eng keng tarqalgan va eng xavfli tur ekanini, *M. fructicola* ning yuqori sporulyatsiya hisobiga tez epidemik tarqalishini, *M. fructigena* ning esa asosan meva pishish davrida zarar yetkazishini ko‘rsatdi. Mumiyolangan mevalar bahorgi infeksiyaning asosiy manbai bo‘lib, *Junctoria* seksiyasi vakillarining yuqori iqtisodiy xavfini tasdiqlaydi.

2-jadval

O‘zbekiston sharoitida *Monilinia* sect.*Junctoria* turlarining ekologik-topografik ahamiyati va zararlilik bahosi

Tur	Ekologik moslashuvchanlik	Kuzatilgan asosiy zarar turi	Zararlilik darajasi (tajribalarimiz asosida)
M. laxa	Bahor nam sharoitida yuqori faol	Gullar nekrozi, novdalar qurishi	Juda yuqori
M. fructigena	O‘rtacha namlikda barqaror	Meva kech chirishi	O‘rta–yuqori
M. fructicola	Issiq-nam davrlarda juda faol	Tez tarqaluvchi epidemik chirish	Juda yuqori

Bobning ikkinchi bo‘limida *Monilinia* turkumining *Disjunctoria* seksiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar keltirilib, unda *Disjunctoria* seksiyasini ajratishda konidial zanjirlardagi disjunktor hujayralar, zanjirlarning bo‘sh tuzilishi, stromalarning qatlamli yoki halqali shakllanishi hamda vegetativ ko‘payish ustunligi asosiy diagnostik belgilar sifatida belgilandi. Olib borilgan morfologik tahlillar natijasida *Disjunctoria* seksiyasiga*, M. linhartiana* va *M. johnsonii* turlari kiritilgan. Ushbu turlar xo‘jayin o‘simliklarida jigarrang chirish kasalligini keltirib chiqarishi, dala va saqlash sharoitida yuqori zarar yetkazishi hamda 40–90 % gacha hosil yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkun.

Junctoria seksiyasi turlari **(**M. *laxa, M. fructicola, M. fructigena*) respublika bog‘larida monilioz kasalligining asosiy qo‘zg‘atuvchilari ekanligi ilmiy asosda tasdiqlandi, mumiyolangan mevalar esa ushbu turlar uchun asosiy infeksiya manbai hisoblanadi. Olingan natijalar Yevropa va Osiyo tadqiqotlari bilan asosiy jihatdan mos keladi, biroq *M. fructigena* ning O‘zbekistonda asosan meva pishish davrida zarar yetkazishi hududning iqlim va xo‘jayin o‘simlik turlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi.


O‘zbekiston hududida *Monilinia* turkumi vakillarining taksonomik xususiyatlari kompleks tahlil qilinib, ularning Sclerotiniaceae oilasiga mansubligi hamda konidial zanjirlarning tuzilishiga ko‘ra *Junctoria* va *Disjunctoria* seksiyalariga ajralishi o‘rganildi. Tadqiqotlar natijasida *M. laxa*, *M. fructicola* va *M. fructigena* turlari mamlakat bog‘dorchilik hududlarida keng tarqalgan asosiy patogenlar ekanligi, *M. linhartiana* esa asosan behi (*Cydonia oblonga*) o‘simligida rivojlanishi qayd etildi. Olingan natijalar *Junctoria* seksiyasi vakillari yuqori sporulyatsiya qobiliyati va tez tarqalish xususiyati tufayli monilioz kasalligining asosiy qo‘zg‘atuvchilari ekanligini hamda ayrim yillarda hosilning 40–90 % gacha yo‘qotilishiga sabab bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Dissertatsianing **”Monilinia turkumi turlarining madaniy va tabiiy o‘simliklarda tarqalishi”** deb nomlangan uchunchi bobda *Monilinia* turlarining madaniy va yovvoyi o‘simliklardagi tarqalishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Uchinchi bobining birinchi bo‘limida *M. laxa* ning O‘zbekiston sharoitida madaniy va yovvoyi mevali o‘simliklarda tarqalishi, xo‘jayin o‘simliklar va navlar bo‘yicha zararlanish darajasi, shuningdek ushbu turning *Monilinia* turkumidagi boshqa iqtisodiy ahamiyatga ega turlar bilan o‘xshash va farqli jihatlari batafsil yoritilgan. 2023–2025-yillarda respublikaning asosiy bog‘dorchilik hududlarida

olib borilgan dala kuzatuvlari natijasida *M. laxa* danakli mevali ekinlarda monilioz kasalligining asosiy va ustun qo‘zg‘atuvchisi ekanligi aniqlangan. Kasallik gullarning monilioz kuyishi, yosh novdalarning nekrozi hamda mevalarning jigarrang chirishi ko‘rinishida namoyon bo‘lib, qulay agroiqlim sharoitida keng tarqalish xususiyatiga ega ekanligi qayd etilgan.

Navlar kesimida olib borilgan tahlillar *M. laxa* ning o‘rik navlarida yuqori zarar yetkazishini ko‘rsatdi. Xususan, “Shalax”, “Qora o‘rik” va “Gulungi luchchak” navlarida zararlanish darajasi 45–60 % gacha yetgani aniqlangan bo‘lsa, “Isfarak” va “Ruhi juvanon” navlari nisbatan chidamli bo‘lib, ularda kasallikning rivojlanishi 15–25 % doirasida kuzatilgan. Gilos navlarida ham turning yuqori faolligi qayd etilib, “Valeriy Chkalov” va “Savri surkhoni” navlarida zararlanish darajasi ayrim yillarda 40–55 % gacha yetgan. Shaftoli ekinlarida *M. laxa* asosan gullar va yosh novdalarni zararlashi bilan ajralib turgan bo‘lib, “Redhaven” va “Elberta” navlarida kasallik ko‘pincha yashirin (latent) infeksiya shaklida rivojlanib, mevalarning pishish davrida keskin namoyon bo‘lishi aniqlangan(1-rasim).




1-rasm . *Monilinia laxa* bilan zararlangan gilos va shaftoli o‘simliklarining tipik belgilari. A – gilosda gul va yosh mevalarning qurib qolishi, mumiyalanishi (monilioz kuyishi). B – shaftolida mevaning monilioz chirishi va sporulyatsiya bilan qoplanishi. C – o‘rikda yetilmay qurib qolgan mevalar

O‘tkazilgan tadqiqotlar *Monilinia laxa* ning *Monilinia* turkumidagi boshqa turlar bilan bir qator umumiy xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Jumladan, *M. fructicola* va *M. fructigena* kabi turlar bilan o‘xshash jihatlari sifatida monilioz kasalligiga xos simptomlar, konidial sporulyatsiya va yuqori namlik sharoitida faol rivojlanish qobiliyati qayd etildi. Shu bilan birga, turning muhim farqli jihatlari ham aniqlangan. *M. laxa* ning asosiy biologik xususiyati uning gullar va yosh novdalarda ustun zararlovchi patogen ekanligi bo‘lib, bu holat uni mevalarda kuchliroq rivojlanadigan *M. fructicola* dan farqlaydi. *M. fructigena* bilan solishtirilganda esa, *M. laxa* ning xo‘jayin o‘simlik doirasi torroq bo‘lib, u asosan danakli mevali ekinlar bilan bog‘liq ekanligi aniqlangan.

Olingan natijalar *Monilinia laxa* ning ayrim navlarda yuqori sezgirlik ko‘rsatishini, boshqa *Monilinia* turlaridan biologik va ekologik jihatdan aniq farqlanishini hamda monilioz kasalligiga qarshi kurash choralarini tur va nav darajasida rejalashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.


M. fructicola ning O‘zbekiston sharoitida tarqalishi, biologik va ekologik xususiyatlari, xo‘jayin o‘simliklar va navlar bo‘yicha zararlanish darajasi hamda ushbu turning *Monilinia* turkumidagi boshqa turlar bilan o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlashga bag‘ishlangan. O‘tkazilgan ko‘p yillik dala va laboratoriya tadqiqotlari *M. fructicola* ning yuqori agressivligi, tez tarqalish qobiliyati va mevalarda ustun zararlovchi patogen sifatidagi ahamiyatini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu tur ayniqsa bog‘dorchilik rivojlangan hududlarda keng tarqalib, mevali ekinlarda sezilarli iqtisodiy zarar keltirishi bilan ajralib turadi.

Dala kuzatuvlari davomida *M. fructicola* bilan zararlanish asosan mevalarda jigarrang chirish, kuchli sporulyatsiya va tez mumiyalanish shaklida namoyon bo‘lgani aniqlangan. Mumiyalangan mevalarning daraxtda saqlanib qolishi keyingi vegetatsiya mavsumida kuchli birlamchi infeksiya manbai bo‘lib xizmat qilishi qayd etildi. Tadqiqotlar ushbu turning gullarni zararlash qobiliyati *M. laxa* ga nisbatan pastroq bo‘lsa-da, infeksiyaning juda tez mevalarga o‘tishi va vegetatsiya davomida ikkilamchi infeksiya orqali ommaviy tarqalishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, mevalar o‘rtasidagi kontakt, mexanik shikastlanishlar va hasharotlar ta’siri ikkilamchi infeksiyaning jadallashishiga sabab bo‘lishi aniqlangan(2-rasm).



2-rasm. *Monilinia fructicola* bilan zararlangan danakli mevali daraxtlarda kasallik belgilari. A – shaftoli mevasida monilioz chirishi va zich mitseliy (sporulyatsiya) bilan qoplanish. B – o‘rik mevalarida monilioz chirishi: meva yuzasida oq–kulrang sporulyatsiya, keyinchalik mumiyalanish. C – gilos daraxtida monilioz kuyishi natijasida shox va novdalarning qurib qolishi

Navlar kesimida olib borilgan tahlillar *M. fructicola* ning shaftoli va nektarin ekinlari uchun eng xavfli patogen ekanligini ko‘rsatdi. “Redhaven”, “Elberta” va “Suncrest” navlarida zararlanish darajasi qulay sharoitlarda 45–65 % gacha yetgani aniqlangan bo‘lsa, “Kardinal”, “Fayzli” va “Veteran” navlari nisbatan chidamli bo‘lib, zararlanish darajasi 15–25 % atrofida bo‘lgan (3-rasm). Olxo‘ri va gilos navlarida ham turning faolligi qayd etilib, “Stanley” va “Valeriy Chkalov” navlarida kasallik epifitotik darajada rivojlanishi mumkinligi aniqlangan, “President” va “Nikitin kechki” navlari esa nisbatan chidamliligi bilan ajralib turgan.



3-rasm. *Monilinia fructicola* bilan zararlanishning shaftoli navlari kesimidagi ulushi (dala kuzatuvlari asosida).

Tadqiqotlar *M. fructicola* ning *M. laxa* va *M. fructigena* bilan bir qator umumiy belgilarga ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu turlar monilioz kasalligiga xos simptomlar, konidial sporulyatsiya va yuqori namlik sharoitida faol rivojlanish xususiyatlari bilan o‘xshashlik qiladi. Shu bilan birga, muhim farqlar aniqlangan: *M. fructicola* ning asosiy biologik xususiyati uning mevalarda ustun va epifitotik rivojlanish qobiliyatiga ega ekanligi bo‘lib, bu jihati bilan u gullar va yosh novdalarda faolroq bo‘lgan *M. laxa* dan farqlanadi. *M. fructigena* bilan solishtirilganda esa, *M. fructicola* ning sporulyatsiya faolligi va koloniyalarining o‘sish tezligi yuqoriroq ekanligi aniqlangan.

Laboratoriya tadqiqotlari *M. fructicola* ning tez o‘suvchi, kuchli sporulyatsiyaga ega koloniyalar hosil qilishini, konidiyalarining nisbatan yirikligi va qisqa zanjirlar shaklida joylashishini ko‘rsatdi. Ushbu morfologik va madaniy belgilar molekulyar usullar bilan tasdiqlanib, turning *Monilinia* turkumi doirasidagi boshqa vakillardan ishonchli farqlanishini ta’minladi. Tadqiqot natijalari *Monilinia fructicola* ning yuqori zarar yetkazish salohiyati navlarning biologik xususiyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatib, kasallikka qarshi kurash choralarini nav va agrotexnik sharoitlarni hisobga olgan holda rejalashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.

M. fructigena ning O‘zbekiston sharoitida tarqalishi, biologik va epidemiologik xususiyatlari hamda xo‘jayin o‘simlik navlari bo‘yicha zararlanish darajasi o‘rganilgan. 2023–2025-yillarda olma, nok va behi bog‘larida olib borilgan dala va saqlash omborlari kuzatuvlari natijasida ushbu turning vegetatsiya davrida sust, ammo hosildan keyingi saqlash bosqichida yuqori zarar yetkazuvchi patogen ekanligi aniqlangan. Dalada tashqi tomondan sog‘lom ko‘ringan mevalarda kasallik ko‘pincha yashirin (latent) shaklda saqlanib, ombor sharoitida 2–4 hafta ichida jigarrang chirish belgilari bilan keskin namoyon bo‘lishi qayd etilgan.

Tadqiqotlar *M. fructigena* ning infeksiyasi asosan mexanik shikastlangan joylar orqali boshlanishini va saqlash davrida yuqori nisbiy namlik sharoitida tez tarqalishini ko‘rsatdi. Past haroratlarda ham patogenning rivojlanishi to‘liq to‘xtamasligi aniqlanib, ushbu tur O‘zbekiston sharoitida tipik “saqlash davri patogeni” sifatida baholandi. Laboratoriya sharoitida o‘tkazilgan morfologik

tahlillar *M. fructigena* ning sekin o‘suvchi koloniyalar hosil qilishi, sporulyatsiyasining sustligi hamda konidiyalarning yirik va ko‘pincha yakka joylashishi bilan *M. laxa* va *M. fructicola* dan farqlanishini tasdiqladi.

Navlar bo‘yicha baholash natijalari *Monilinia fructigena* bilan zararlanish darajasi navlarning biologik xususiyatlariga bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Olma navlarida yupqa po‘stloqli va mexanik shikastga moyil navlarda saqlash davrida zararlanish 30–45 % gacha yetgani qayd etilgan, qalin po‘stloqli va kech pishuvchi navlarda esa kasallik nisbatan past darajada namoyon bo‘lgan. Nok navlarida zararlanish asosan ombor sharoitida rivojlanib, suvli va yumshoq to‘qimali navlarda chirish tez kechgani aniqlangan. Behi navlarida kasallik ko‘proq shikastlangan mevalarda kuzatilib, zich to‘qimali mevalarda infeksiya sekin rivojlangan.

2023-2025-yillarda olib borilgan dala va saqlash omborlari kuzatuvlari *M. linhartiana* ning behi navlari bo‘yicha turlicha rivojlanishini ko‘rsatdi. Samarqand navi va Xorazm olmasimon behisi nisbatan chidamli navlar sifatida ajratilib, ularda kasallik sekin rivojlandi va saqlash davrida zararlanish darajasi past bo‘ldi. Serhosil (Izobilnaya) va ayniqsa Sovxoz navlarida esa saqlash davrida chirish jarayoni kuchliroq namoyon bo‘lib, latent infeksiya mavjudligi qayd etildi.

Laboratoriya tadqiqotlari *M. linhartiana* ning sekin o‘suvchi, sust sporulyatsiyali patogen ekanligini tasdiqladi. Koloniyalar zich emas, och kulrang rangda bo‘lib, konidiyalar asosan yakka joylashishi bilan tavsiflandi. Ushbu morfologik va madaniy belgilar majmuasi turning amaliy diagnostikasida ishonchli mezon sifatida belgilandi.

